

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Ismatullayeva Shoira Nurlibekovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009–0001–8717–3558

E-mail: dronzakai@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida vakolatli iqtisodiy operatorlar (VIO) institutining joriy etilishi, uning amaldagi holati va samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlar asosida 2019–2025-yillar davomida VIO reyestriga qabul qilish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, VIO subyektlari bojxona rasmiylashtiruv jarayonida muayyan yengilliklarga, jumladan, yashil yo‘lak ulushining 50 foizni tashkil etishiga ega bo‘lishiga qaramay, dastur qamrovi yetarli darajada keng emas va murojaatlarning yarmidan ko‘pi rad etilmoqda. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil VIO tizimini kengaytirish, qo‘shimcha toifalarni joriy etish hamda talablarni bosqichma-bosqich soddalashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqola yakunida O‘zbekiston sharoitida vakolatli iqtisodiy operatorlar institutining amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit sozlar: vakolatli iqtisodiy operator (VIO), SAFE Framework, bojxona ma’muriyatchiligi, ta’minot zanjiri xavfsizligi, ishlab chiqaruvchi, soddalashtirilgan rasmiylashtirish.

Аннотация

В данной статье проводится системный анализ внедрения института уполномоченных экономических операторов (УЭО) в Республике Узбекистан, его текущего состояния и эффективности. На основе статистических данных оцениваются основные проблемы, возникающие в процессе включения в реестр УЭО в 2019–2025 годах. Результаты исследования показывают, что, несмотря на значительные упрощения, предоставляемые субъектам УЭО при прохождении таможенных коридоров (доля «зелёного коридора» составляет 50%), охват программы остаётся низким, а более половины поданных заявок отклоняется. Сопоставление с международным опытом демонстрирует необходимость расширения системы УЭО, введения дополнительных категорий и поэтапного упрощения требований. В заключение разработаны предложения, направленные на повышение практической эффективности института УЭО в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: уполномоченный экономический оператор (УЭО), рамочные стандарты, таможенное администрирование, безопасность цепочки поставок, производитель, упрощённое таможенное оформление.

Abstract

This article provides a systematic analysis of the introduction of the Authorized Economic Operator (AEO) institution in the Republic of Uzbekistan, as well as its

current status and effectiveness. Based on statistical data, the study evaluates the key challenges encountered in the AEO registry admission process during the period of 2019–2025. The findings indicate that despite the significant simplifications granted to AEO entities when passing through customs corridors (with 50% directed to the green channel), the program's overall coverage remains low, and more than half of the submitted applications are rejected. A comparison with international practices highlights the need to expand the AEO system, introduce additional categories, and gradually simplify eligibility requirements. The article concludes with recommendations aimed at enhancing the practical effectiveness of the AEO institution within the context of Uzbekistan.

Keywords: Authorized Economic Operator (AEO), SAFE Framework, customs administration, supply chain security, manufacturer, simplified customs clearance.

KIRISH

Xalqaro savdo jarayonlarining jadal sur'atlarda o'zgarishi, logistika zanjirlarining murakkablashuvi va transchegaraviy xavf omillarining kuchayishi bojxona ma'muriyatchiligidan xavfsizlik hamda savdo erkinligini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Ana shunday sharoitda vakolatli iqtisodiy operatorlar (VIO) instituti ishonchga asoslangan nazorat modeli sifatida alohida ahamiyat kasb etib, bojxona organlari va biznes subyektlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, xavflarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda tovarlar harakatini soddalashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida VIO instituti shakllantirilgan bo'lib, mazkur tizimni toifalash va amaliy qo'llash mexanizmlarini yanada takomillashtirish borasida xorijiy tajribaga tayangan holda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, VIO dasturining samaradorligi asosan institutsional moslashuvchanlik darajasi, xavfga asoslangan baholash tizimlarining mavjudligi hamda biznes subyektlari uchun yaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda vakolatli iqtisodiy operatorlar institutining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning faoliyatida mavjud bo'lgan cheklovlar va institutsional muammolarni aniqlash hamda xalqaro amaliyot asosida VIO tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asrda xalqaro savdo jarayonlarining keskin globallasuvi, yuk oqimlarining ortishi va transchegaraviy risklarning murakkablashuvi bojxona organlari oldiga xavfsizlik va savdo erkinligi o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash vazifasini qo'ydi. Ayniqsa, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng global ta'minot zanjirida xavfsizlik standartlarini qayta ko'rib chiqish zarurati kuchaydi. Shu sharoitda Jahon Bojxona Tashkiloti tomonidan 2005-yilda "SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade" [1] nomli universal normativ-huquqiy mexanizm qabul qilindi. Mazkur dastur global savdoni bir vaqtning o'zida himoya qilish va

jadallashtirish maqsadiga xizmat qiluvchi zamonaviy bojxona siyosatini shakllantirishga qaratilgan. Bugungi kunda JBTga a'zo davlatlar soni 187 tani tashkil etib, ularning to'rt dan uch qismi rivojlanayotgan davlatlardan iboratdir. Mazkur a'zolar jahon savdosining 98 foizidan ortig'ini boshqaradi va yuqoridagi talablarni milliy qonunchilikka tatbiq etgan [8].

Ekspertyor va importyorlarga xizmat ko'rsatadigan vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti nisbatan yangi mexanizm bo'lishiga qaramay, uning nazariy asoslari logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'minot zanjiri xavfsizligini ta'minlash, yuk harakati ustidan riskka asoslangan nazoratni tashkil etish, tovar ishlab chiqarish va uning harakatlanishi bilan bog'liq jarayonlarni optimallashtirish hamda ishonchli xo'jalik yurituvchi subyektlarni aniqlash VIO konsepsiyasining asosiy poydevori sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda logistika tizimlarini raqamlashtirish, yuk oqimlarini tezlashtirish, bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish, "yashil yo'lak", avtomatik rasmiylashtirish, masofaviy rasmiylashtirish, bojxona auditi kabi mexanizmlarni qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar aynan VIO institutining shakllanishi va samaradorligini o'rganishga yo'naltirilgan. Ilmiy manbalarga ko'ra, ta'minot zanjiri ishtirokchilarini ishonchlilik darajasiga ko'ra tasniflash va ularga soddalashtirilgan tartiblarni berish xalqaro savdo xavfsizligi hamda tezkorligini ta'minlovchi eng muhim yondashuvlardan biridir.

Sumina N.V. tomonidan chop ettirilgan "Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida vakolatli iqtisodiy operatorlar institutining faoliyat yuritish muammolari" darsligida VIO institutini joriy etish bojxona organlari va tadbirkorlik subyektlari uchun o'zaro manfaatli mexanizm yaratish doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [2].

I. Petrushevskaya 2021-yilda EOII da VIO faoliyatini tahlil qilib, ushbu tizim "ikki tomon uchun ham manfaatli" ekanini, ya'ni VIO maqomiga ega subyektlar tashqi savdo jarayonlarida sezilarli soddalashtirishlar va vaqt xarajatlarining kamayishiga erishganini, bojxona organlari esa o'z e'tiborini yuqori xavfli ishtirokchilarga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lganini ta'kidlaydi [3].

Komelova A.Yu. tadqiqotida VIO institutining turli mamlakatlardagi kategoriyalash amaliyoti hamda moliyaviy ta'minot talablari tahlil qilinib, Xitoy, Hindiston, Yevropa Ittifoqi va Turkiya kabi davlatlarda VIO lar sonining yuqoriligi ushbu institutning rivojlanganligini ko'rsatishi qayd etilgan. Muallif Rossiya Federatsiyasida VIO lar sonining nisbatan kamligini yuqori moliyaviy ta'minot talablari va ma'lumot tizimlariga kirish bo'yicha qo'shimcha shartlar mavjudligi bilan izohlaydi [4].

Xalqaro adabiyotlarda VIO dasturlarining samaradorligi keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston tajribasi bo'yicha ilmiy izlanishlarning kamligi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekistonda Vakolatli Iqtisodiy Operator (VIO) instituti Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi 363-sonli "Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [5] qaroriga asosan joriy qilingan.

VIO maqomi bojxona organlari tomonidan ishonchli deb topilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi va ularga soddalashtirilgan hamda tezlashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish imkonini taqdim etadi.

Mazkur institutning joriy etilishi xalqaro savdo hajmi yuqori bo‘lgan sharoitda bojxonada har bir yukni to‘liq tekshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy, insoniy va texnologik resurslarni tejash hamda xavflarni samarali boshqarish orqali savdoni uzluksiz ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 500-sonli “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi [6] qarori asosida Bojxona qo‘mitasi tomonidan vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi belgilab qo‘yilgan.

Bojxona qo‘mitasi tomonidan VIO larga ularning belgilangan mezonlarga qay darajada mos kelishidan kelib chiqib quyidagi guvohnomalar beriladi: bojxona masalalari bo‘yicha vakolatli iqtisodiy operator; xavfsizlik masalalari bo‘yicha vakolatli iqtisodiy operator; bojxona va xavfsizlik masalalari bo‘yicha vakolatli iqtisodiy operator.

Operatorlar tegishli guvohnoma turidan kelib chiqib, tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvdan birinchi navbatda o‘tkazish, bojxona yuk deklaratsiyalarini asosan yashil va sariq yo‘laklarga yo‘naltirish, nazoratning minimal shakllarini qo‘llash va past xavf aniqlanganda avtorasmiylashtiruvdan foydalanish, bojxona to‘lovlari bo‘yicha oldindan kafolat talab etilmagan holda bojxona omboridan belgilangan manzilgacha tranzitni amalga oshirish, bojxona to‘lovlarini qo‘shimcha ta‘minotsiz 60 kalendar kungacha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash, kafolat ta‘minlanmagan holda erkin muomalaga chiqarish (import/eksport) tartibidan foydalanish, xalqaro yuk tashishda bojxona kuzatuv va hamrohligi choralarni qo‘llamaslik, operatorning plombalarini bojxona identifikatsiyasi vositasi sifatida qabul qilish va ulardan foydalanish, bojxona jarayonlarini tezlashtirishga qaratilgan tajriba (pilot) loyihalarda ustuvor ishtirok etish, shuningdek, VIO reyestri masalalarini bojxona–biznes koordinatori bilan muvofiqlashtirish va amaliy-konsultativ ko‘mak olish huquqiga ega bo‘ladi.

Mazkur yengilliklar bojxona ma‘muriyatchiligining asosiy maqsadi – xalqaro savdo oqimlarini jadallashtirish va “bojxona–biznes” hamkorligining samaradorligini oshirishga qaratilganligini aks ettiradi.


METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini transport-logistika xizmatlari va bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan xorijiy hamda o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, vakolatli iqtisodiy operatorlar institutini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalari ham tahlil qilindi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari hisobotlari va statistik ma‘lumotlari, amaldagi qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, VIO institutini rivojlantirishga oid davlat dasturlari va rasmiy hisobotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida funksional yo‘naltirilgan qidiruv,

iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash hamda modellashtirishning turli usullari va vositalari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan vakolatli iqtisodiy operatorlar qonunchilikda belgilangan mezonlardan kelib chiqib bir necha toifalarga ajratilgan. Amaldagi tartibga muvofiq, operatorlar bojxona masalalari bo‘yicha vakolatli iqtisodiy operator, xavfsizlik masalalari bo‘yicha vakolatli iqtisodiy operator hamda bojxona va xavfsizlik masalalarini birgalikda qamrab oluvchi vakolatli iqtisodiy operator sifatida tasniflanadi. Ushbu toifalash mexanizmi operatorlarning tashqi savdo jarayonlaridagi funksional rolini, risk darajasini va ularga taqdim etiladigan bojxona yengilliklari hajmini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur toifalar doirasida qo‘llanilayotgan talablar va imtiyozlar ko‘proq yirik tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moslashtirilgan bo‘lib, kichik va o‘rta biznes subyektlarining VIO maqomini olish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda. Bu holat VIO institutini bosqichma-bosqich rivojlantirish, operatorlar toifalarini kengaytirish va talablarni differensiallash orqali uning qamrovini oshirish zarurligini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Vakolatli iqtisodiy operatorlar toifalari¹

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistondagi mavjud operatorlar turlari bojxona brokeri, bojxona ombori egasi, tashuvchi hamda eksport-import qiluvchi subyektlarni qamrab olgan. Ma’lumki, xalqaro savdo jarayonlarida risklar faqat bitta bosqichda yuzaga kelmaydi; aksincha, ular kelib chiqish, qadoqlash, saqlash, tashish, tranzit, deklaratsiya, bojxona to‘lovlari va yukni qabul qilish kabi ko‘plab jarayonlarda turlicha shakllanadi. Jahon Bojxona Tashkilotining SAFE Framework hujjatiga ko‘ra, VIO – “xalqaro tovar harakatida istalgan funksiyada ishtirok etuvchi va bojxona ma’muriyati tomonidan JBT xavfsizlik standartlariga muvofiq deb tasdiqlangan xo‘jalik yurituvchi subyekt” [1] hisoblanadi. Mazkur ta’rifdan ko‘rinadiki, VIO institutida ta’minot zanjirining turli ishtirokchilari, jumladan, ishlab chiqaruvchilar, importyorlar, eksportyorlar, bojxona brokerlari, tashuvchilar, konsolidatorlar (yuklarni birlashtiruvchi operatorlar), vositachilar, port operatorlari, terminal operatorlari, ombor egalari (saqlovchi tashkilotlar), distribyutorlar hamda ekspeditorlar (yuk tashuvini tashkil qiluvchi logistika

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

operatorlari) alohida toifa sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday toifalarga ajratish risklarni bosqichma-bosqich aniqlash, amalga oshirilayotgan faoliyat sohasi kesimida baholash hamda bojxona resurslarini yuqori xavfli yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

O‘zbekiston amaliyotida esa hozirgi VIO toifalari – bojxona brokerlari, bojxona omborlari egalari, tashuvchilar hamda eksport-import qiluvchi subyektlar – ta‘minot zanjirining faqat bir qismini qamrab oladi. Mazkur tizim xalqaro standartlarga mos bo‘lsa-da, uni yanada takomillashtirish maqsadida, ayniqsa ishlab chiqaruvchilar, yuklarni birlashtiruvchi operatorlar, logistika operatorlari va ekspeditorlar kabi qo‘shimcha toifalarni joriy etish orqali tizim qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Jahon Bojxona Tashkilotining so‘nggi statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, turli davlatlarda VIO institutining rivojlanish darajasi keskin farqlanadi. Rivojlangan bojxona tizimiga ega davlatlar, qoida tariqasida, VIO qamrovining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Xususan, AQShda 11 020 nafar, Xitoyda 4 542 ta, Koreyada 845 ta, Belarusda 281 ta, Singapurda esa 84 ta VIO faoliyat yuritadi [7]. Ushbu ko‘rsatkichlar VIO dasturining jadal rivojlanishi nafaqat yirik iqtisodiy tizimlarga xos ekanini, balki ta‘minot zanjirining xalqaro integratsiyalashganligi hamda bojxona ma‘muriyatchiligida soddalashtirilgan mexanizmlarga bo‘lgan talab yuqoriligini aks ettirishini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

2019–2025-yillarda Bojxona qo‘mitasida yuritilgan VIO reyestri holati¹

№	Yil	Murojaatlar soni	Reyestriga kiritilgan	Rad etilgan	Rad etilgan (foizda)
1	2019	7	7	0	0
2	2020	24	12	12	50
3	2021	39	24	15	38,5
4	2022	54	26	28	51,9
5	2023	27	12	15	55,6
6	2024	32	15	17	53,1
7	2025 10 oyi	52	38	14	26,9
Jami		235	134	101	43

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, operator maqomini olish uchun tadbirkorlar tomonidan Bojxona qo‘mitasiga qilingan murojaatlar soni yildan yilga oshib borgan. 2019-yildan 2025-yilgacha Bojxona qo‘mitasi tomonidan jami 134 ta tadbirkorlik subyektiga yuridik shaxs sifatida vakolatli iqtisodiy operator maqomi taqdim etilgan. Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda murojaatlarning 50 foizi, 2022-yilda 51,9 foizi, 2023-yilda 55,6 foizi hamda 2024-yilda 53,1 foizi rad etilgan, ya‘ni murojaatlarning deyarli yarmiga salbiy javob berilgan. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, VIO reyestriga kirish uchun qo‘yilgan talablar nisbatan yuqori bo‘lib, bu holat murojaatlarning katta qismining rad etilishiga sabab bo‘lmoqda. Talablarni

¹ Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari

ma'lum darajada moslashtirish yoki yumshatish esa operatorlar sonini oshirish imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval.

2019–2025 (10 oy) VIO lar bo'yicha rad etish sabablarining tasnifi¹

№	Rad etish sababi	Rad etilgan murojaatlar
1	Ma'muriy ish	46
2	Ombor talabga javob bermasligi	31
3	Soliq qarzdorligi	20
4	Debitor qarzdorlik	10
5	BYuDlar soni kamligi	8
6	Jinoyat ishi	7
7	MIBdan qarzdorlik	6
8	Tovar aylanmasi yetarli bo'lmagan	2
9	Hujjatlar to'liq taqdim etilmagan	2
Jami		132

[Shuni alohida ta'kidlash lozimki, birgina murojaat bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq talablarga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli rad etilgan murojaatlar umumiy soni bilan rad etish sabablarining jami soni o'rtasida miqdoriy farqning kuzatilishi tabiiy bo'lib, bu ularning o'zaro mutanosibligini buzmaydi.]

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, murojaatlarning aksariyati ularning qonun bilan belgilangan talablarga, asosan, ma'muriy javobgarlikka tortilish, tovarlarni saqlash uchun omborxonalariga qo'yilgan talablar hamda soliq qarzdorligi bo'yicha belgilangan mezonlarga javob bermaganligi oqibatida qaytarilgan. Operatorlarga qo'yilgan talablar, avvalo, ularga taqdim etiladigan soddalashtirilgan tartiblardan foydalanishga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida belgilangan. Ushbu talablarni operatorlarning yillar davomida amalga oshirgan faoliyatini baholash mezonlari sifatida ham talqin qilish mumkin.

Ma'muriy ishlar bo'yicha operatorlarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat. Operator maqomini olishga talabgor subyekt bojxona organiga ariza topshirilgan sanadan oldingi 12 oy davomida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan moddalar bo'yicha yuridik shaxs boshqaruv organlari – rahbar, bosh buxgalter hamda vakolatli shaxslar, shu jumladan, ushbu lavozimlarda oxirgi bir yil davomida faoliyat yuritgan shaxslar, ikki martadan ortiq ma'muriy javobgarlikka tortilmagan bo'lishi shart. Bunda quyidagi turdagi huquqbuzarliklar nazarda tutiladi: valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish tartibini buzish; O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish; soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash; soliq solish obyektlarining hisobini va hisobotini yuritishning belgilangan tartibini, shuningdek, to'lov intizomini buzish; noqonuniy tadbirkorlik faoliyati; o'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o'xshash bo'lgan belgilardan

¹ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari

shu turdagi tovarlarga yoki xizmatlarga nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish yoxud o'zganing firma nomidan noqonuniy foydalanish; bojxona nazorati zonasi rejimini buzish.

Amaliyotda operatorlar bojxona rasmiy tartib-qoidalariga rioya qilmagan holatlarda eng ko'p uchraydigan rad etish sabablaridan biri bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi hisoblanadi. Ushbu rejimning buzilishi faqat tovarlarni saqlash yoki harakatlantirish qoidalariga rioya etilmasligi bilan cheklanmay, balki zonada amal qiluvchi umumiy nazorat, xavfsizlik, identifikatsiya, ruxsatnomalar va ma'lumotlar almashinuvi tizimlarini ham qamrab oladi. Bular jumlasiga bojxona nazorati zonasida tovarlar va transport vositalarini joylashtirish yoki olib chiqishning belgilangan tartibini buzish; bojxona nazorati zonasiga kirish yoki chiqish uchun ruxsati bo'lmagan shaxslar yoki transport vositalarining harakatlanishi; bojxona organlari tomonidan qo'llaniladigan nazorat-identifikatsiya vositalarini shikastlash, o'zgartirish yoki ularni noqonuniy tarzda olib tashlash; zonada o'rnatilgan kuzatuv va monitoring tizimlari faoliyatiga aralashish yoki ulardan noto'g'ri foydalanish; raqamli deklaratsiya, elektron navbat va masofaviy rasmiylashtirish tizimlariga ma'lumotlarni noto'g'ri yoki atayin buzib kiritish; bojxona nazorati jarayonlarini chetlab o'tish, yashil yoki sariq yo'lak afzalliklaridan belgilangan qoidalarga zid tarzda foydalanish kabi holatlar kiradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, rejim buzilishi har doim ham qasddan sodir etilmaydi. Inson omili ta'sirida hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida, ma'lumotlarni axborot tizimlariga kiritishda yoki tovarlarni belgilangan yo'nalish bo'yicha kuzatishda texnik va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, noto'g'ri kod kiritilishi, ma'lumotlarning kech yuklanishi yoki axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya uzilishlari tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hatto ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Holbuki, bunday buzilishlar har doim ham tadbirkorlarning manfaatdorligi yoki soliqlardan qochish kabi maqsadlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Shu bois operator maqomini berish jarayonida bojxona nazorati zonasi bilan bog'liq ayrim ma'muriy javobgarlik talablarini muayyan darajada yumshatish orqali murojaatlarning rad etilish sonini qisqartirish mumkin (3-jadval).

3-jadvalda tovarlarni saqlash uchun ombor sifatida foydalanishga mo'ljallangan inshootlar, binolar (yoki ularning bir qismi) hamda ochiq maydonchalarga nisbatan belgilangan talablar aks ettirilgan. Ushbu talablarning to'liq bajarilishi bojxona xavfsizligi va nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qilsa-da, ayni paytda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun ularni bir vaqtning o'zida bajarish muayyan moliyaviy va texnik resurslar cheklovini yuzaga keltirishi mumkin. Biroq amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur talablarning bajarilishi tadbirkorlar uchun sezilarli iqtisodiy foyda ham keltirmoqda. Jumladan, 2025-yilning 10 oyi davomida 85 mln AQSH dollaridan ortiq qiymatdagi 1620 partiya tovar bojxona to'lovlari ta'minotisiz bevosita tadbirkorlarning o'z omborlariga tushirilgan bo'lib, buning natijasida qariyb 5,5 mlrd so'm mablag' tejalgan.

3-jadval.
Tovarlarni saqlash uchun ombor sifatida foydalanishga mo'ljallangan inshootlar, binolar (binolarning bir qismi) va (yoki) ochiq maydonchalarga (ochiq maydonchalarning bir qismi) uchun qo'yiladigan talablar¹

Tovar xavfsizligi va bojxona nazorati imkoniyati	Nazorat va xavfsizlik rejimi
Bojxona nazorati ostidagi tovar va transport vositalarining saqlanishi	Kirish/chiqishni identifikatsiya va qayd etish asosida nazorat qiluvchi tizimlar
Bojxona ruxsatisiz yuklash, tushirish yoki qayta ortish kabi operatsiyalarning oldini olish	Ishdan bo'shatilgan xodimlarning kirish huquqini zudlik bilan bekor qilish
Omborda bojxona nazoratini amalga oshirish uchun sharoit mavjud bo'lishi	Videokuzatuv, qo'riqlash va yong'inga qarshi signalizatsiya tizimlari bilan jihozlanishi
	Bojxona ma'muriyati talab etilgan holatlar uchun 3 oy davomida videoyozuvni saqlash, bojxona organlari bilan masofaviy ulanishni qo'llab-quvvatlash
Hudud infratuzilmasi	Texnik va operatsion talablar
Mustahkam qoplama (beton, asfalt va boshqalar) bilan jihozlanishi;	Omborga olib boruvchi yo'llarning sozligi va qulayligi;
Transport vositalari uchun to'xtash joylari mavjudligi;	Yoritish, yuk tortish (o'lchov) moslamalari va ortish-tushirish texnikalarining mavjudligi;
Ochiq maydonlar perimetr bo'ylab yaxlit to'siq bilan o'ralgan bo'lishi;	Tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazish uchun zarur mexanizmlar bilan ta'minlanishi
Bojxona nazorati zonalarining amaldagi tartibga muvofiq belgilanishi.	

Bu holat ombor infratuzilmasiga qo'yilgan talablarni bajarish nafaqat bojxona xavfsizligini ta'minlashini, balki tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha yuklash-tushirish xarajatlarini kamaytirish, vaqtni tejash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali ishlab chiqarish va logistika jarayonlari samaradorligini oshirishini yaqqol ko'rsatadi. Shu sababli ko'plab tadbirkorlar omborlarni belgilangan talablar darajasiga moslashtirish va tegishli guvohnomalarni olishga intilmoqda, chunki bu ularga vakolatli iqtisodiy operator maqomi doirasida yanada kengroq soddalashtirilgan bojxona tartiblaridan foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, agar amaldagi qonunchilikda omborlarga qo'yiladigan ayrim, ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun yuqori xarajat talab etuvchi infratuzilmaviy talablar moslashtirilsa yoki ularni bosqichma-bosqich bajarish mexanizmi joriy etilsa, VIO maqomiga murojaat qiluvchi tadbirkorlar sonini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv bir tomondan bojxona xavfsizligi darajasini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan VIO tizimiga kirishdagi institutsional to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti O‘zbekiston bojxona tizimida muhim o‘rin egallashini, biroq uning amaliy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq ro‘yobga chiqmaganini ko‘rsatadi. Amaldagi tartib-taomillar, toifalash mezonlari va infratuzilmaviy talablar xalqaro standartlar bilan qiyoslanganda nisbatan tor doirada shakllangan bo‘lib, bu VIO dasturining qamrovi, biznes uchun yaratayotgan qulayliklari va bojxona organlari uchun boshqaruv samaradorligini ma‘lum darajada cheklab turuvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qiyosiy tahlil O‘zbekistonda VIO instituti salohiyatini yanada kengaytirish uchun institutsional moslashuvchanlikni oshirish, xavfga asoslangan baholash mexanizmlarini kuchaytirish va operatorlar uchun amaliy rag‘batlar tizimini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: VIO toifalarini kengaytirish, ya‘ni ishlab chiqaruvchi, yuklarni birlashtiruvchi operatorlar, logistika operatorlari va ekspeditorlar kabi ta‘minot zanjiri ishtirokchilarini ham qamrab oluvchi yangi toifalarni joriy etish; normativ talablarni bosqichma-bosqich soddalashtirish, kichik va o‘rta biznes subyektlarining imkoniyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan yondashuvni joriy qilish; VIO subyektlari uchun amaliy imkoniyatlarni kengaytirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi VIO institutining institutsional barqarorligini mustahkamlab, tashqi savdo jarayonlarida prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, bu mamlakatning xalqaro savdo-logistika tizimidagi raqobatbardoshligini oshirishga, bojxona boshqaruvi samaradorligini yaxshilashga va biznes subyektlari uchun barqaror hamda ishonchli muhit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. – Bryussel: Jahon Bojxona Tashkiloti, 2005.

2. Сумина Н. В. Проблемы функционирования института уполномоченных экономических операторов в Евразийском экономическом союзе // Управление инвестициями и инновациями. – 2016. – № 2. – С. 98–102. – DOI: 10.14529/iimj160217. – EDN: WBCMNJ.

3. Петрушевская А. В. Анализ деятельности уполномоченных экономических операторов в Российской Федерации и в государствах – членах Евразийского экономического союза // Colloquium-Journal. – 2021. – № 1-1(88). – С. 36–41. – EDN: ILOZC.

4. Комелова А. Ю. Вопросы категорирования участников внешнеэкономической деятельности в рамках института уполномоченного экономического оператора // Торгово-экономический журнал. – 2021. – Т. 8, № 4. – С. 315–327.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi 363-son “Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror <https://lex.uz/ru/docs/-4315278>

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2020-yil 24-avgustdagi 500-son “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4966537>

7. <https://aeo.wcoomd.org/list>

8. <https://www.wcoomd.org/>

9. <https://www.customs.uz/oz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**